

“MAHALLA RAISLARI SAYLOVI: ISLOHOTLARNING YANGI BOSQICHI SIFATIDA”

Avlaqulov Sobir Shodiqul o‘g‘li

Qibray tuman adliya bo‘limi

Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi boshlig‘i

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida mahalla raislari saylovi tartibiga kiritilgan o‘zgarishlar, xususan, vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilishining mazmun-mohiyati yoritilgan. Islohotlarning jamiyat barqarorligi va boshqaruv samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Qonuniy asoslar, ularning ijrosi va kutilyotgan natijalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar:

mahalla, rais, saylov, fuqarolik jamiyat, islohot, boshqaruv, qonun, vakolat, barqarorlik, mas’uliyat.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va mahalla institutining rolini oshirishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, mahalla raislarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylash tartibining joriy etilganligi jamiyatda ochiqlik va ishonchni ta’minalash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Bu islohotlar nafaqat boshqaruv tizimini takomillashtirish, balki mahallalarning mustaqil rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Asosiy qism

Bugungi kunda mahalla instituti, ya’ni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari nafaqat qadimiylar an’alarimizning davomchisi, balki zamonaviy fuqarolik jamiyatining eng muhim tayanch nuqtalaridan biri sifatida shakllanmoqda. Shu jihatdan, mahalla raisining roli va mas’uliyati tobora ortib bormoqda.

Mahalla raisi – bu faqatgina hujjatlarga imzo chekadigan yoki yig‘ilishlarda qatnashadigan shaxs emas. U – har bir xonodonning, har bir oilaning og‘ir-yengilini

biladigan, muammolarni o‘rganib, yechim topishga harakat qiladigan, jamoani birlashtiradigan yetakchidir. Mahalla raisi – bu ishonchli maslahatgo‘y, tinchlik garovi, ba’zida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri insoniy dalda bo‘la oladigan rahbar.

Bugungi islohotlar jarayonida mahalla raislariga yuklanayotgan vazifalar yanada kengaymoqda. Ular nafaqat ijtimoiy yordam masalalari, balki yoshlar bilan ishlash, ayollarni qo‘llab-quvvatlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, tadbirkorlikni rivojlantirish kabi ko‘plab yo‘nalishlarda faoliyat olib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik, bilim olishga qiziqish uyg‘otish, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga jalb etish borasida mahalla raislarining yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, mahalla raisi – bu davlat va xalq o‘rtasidagi ko‘prik. U markaziy organlar tomonidan berilgan topshiriqlarni jamoaga tushunarli va samarali yetkazib berishi, aholining fikr-mulohazalarini esa yuqoriga yetkazishi lozim. Bu ikkiyoqlama ishonch va aloqaning samarali bo‘lishi, aynan raisning shaxsiy salohiyati, tajribasi va odob-ahloqiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi¹ - deb belgilanishi ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, jumladan mahalla raislarining roli muhim ekanligidan dalolat beradi.

Yurtimizda mahalla raislarini saylov asosida tanlash tartibi joriy etilishi esa bu lavozimga bo‘lgan e’tibor va ishonchni yanada oshirdi. Endi rais xalq tomonidan tanlanadi, demak, u aholining ishonchiga sazovor bo‘lishi, jamoa e’tiborini qozonishi kerak.

Avallo, biz bilishimiz kerakki, kimlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, ya’ni mahalla raisi bo‘lishi mumkinligini bilib olishimiz lozim. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi qonunining

¹ Milliy qonunchilik bazasi: Konstitutsiya 127-modda.

3-moddasiga ko‘ra², Fuqarolar yig‘ini raisi saylovida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi) ishtirok etishi ixtiyoriy va erkindir. Fuqarolarni saylovda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida ularga ta’sir ko‘rsatishga, shuningdek ularning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishiga ta’sir ko‘rsatishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar yig‘ini raisini saylash huquqiga saylov kuni o‘n sakkiz yoshga to‘lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek shahardagi, shaharchadagi, qishloqdagi, ovuldaggi mahalla hududida (bundan buyon matnda tegishli hudud deb yuritiladi) doimiy yashovchi fuqarolar ega bo‘ladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar fuqarolar yig‘ini raisi saylovida ishtirok etishi mumkin emas.

Fuqarolar yig‘ini raisi lavozimiga nomzodlarga qo‘yiladigan talablar ushbu qonunda belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga muvofiq: fuqarolar yig‘ini raisi lavozimiga nomzodlar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lishi, qoida tariqasida, oliv ma’lumotga ega bo‘lishi, bevosita saylovga qadar kamida besh yil tegishli hududda doimiy yashayotgan bo‘lishi, tashkilotchilik qobiliyatiga, davlat organlarida yoki nodavlat notijorat tashkilotlarida yoxud tadbirkorlik va boshqa xo‘jalik faoliyati sohasida ish tajribasiga, shuningdek hayotiy tajribaga va aholi o‘rtasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lishi kerak.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, og‘ir yoxud o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar, shuningdek sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan, haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar, diniy tashkilotlarning professional xizmatchilari fuqarolar yig‘ini raisi lavozimiga saylanish uchun nomzod etib ko‘rsatilishi mumkin emas.

So‘nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mahalla institutining roli sezilarli darajada ortdi. Ayniqsa, mahalla raislarini saylash tartibining

² <https://lex.uz/docs/-3988421>

joriy etilganligi ushbu institutni haqiqiy fuqarolik jamiyati poydevoriga aylantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-fevraldagagi O‘RQ-1027-sonli Qonuni bilan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi qonunlariga fuqarolar yig‘ini raisi vakolatlari muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirildi. Bu o‘zgarish chuqur tahlil va strategik yondashuv asosida amalga oshirildi. Quyida bu Qonunning asosiy jihatlarini har tomonlama ko‘rib chiqamiz.

1. Barqarorlik va izchillik uchun imkon:

3 yillik muddat raislar uchun qisqa davr bo‘lib, ko‘plab tashabbus va loyihalarni boshlashga ulgursa-da, ularni to‘liq amalga oshirishga vaqt yetmay qolardi. 5 yillik muddat esa raislarga uzoq muddatli reja tuzish, boshlangan ishlarga chuqurroq yondashish va natijani ta’minalash imkonini beradi. Bu barqarorlik esa mahallaning o‘ziga xos muammolari va ehtiyojlariga asoslangan, tizimli rivojlanishni ta’minlaydi.

2. Mas’uliyat va hisobdorlik kuchayadi:

5 yil muddat – bu katta ishonchni anglatadi. Bu esa raislardan yanada chuqurroq bilim, puxta tayyorgarlik va jamoa bilan samarali ishlashni talab qiladi. Har bir yil – ularning faoliyati bo‘yicha baho beriladigan bosqichga aylanadi. Shuningdek, muddat uzoq bo‘lgani sayin, aholining talabchanligi ortadi, bu esa ochiq va halol boshqaruvga undaydi.

3. Mahalla institutining davlat boshqaruvidagi o‘rnri ortadi:

Uzoq muddatli raislik mahalla institutini kuchli boshqaruv bo‘g‘iniga aylantiradi. Raislar ko‘proq tajriba to‘playdi, hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga chuqurroq singadi va yuqori idoralar bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatadi. Bu esa butun tizimning yaxlit ishlashini ta’minlaydi.

Xulosa

Mahalla raisi – bu oddiy lavozim emas. U fidoyilik, sabr-toqat, bilim va eng muhimi, xalq bilan ishlash madaniyatini talab qiladigan mas’uliyatli vazifadir. Har bir

rais o‘z mahallasining taraqqiyoti, tinchligi va ahil hayoti uchun bosh-qosh bo‘lishi kerak. Zero, kuchli mahalla – kuchli jamiyat demakdir.

Mahalla raislarini har 5 yilda saylash amaliyoti – bu shunchaki muddatni cho‘zish emas. Bu – jiddiy islohotlarning mantiqiy davomi, jamiyatda barqarorlik, samaradorlik va ishonchli rahbarlik tamoyillarini qaror toptirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Endilikda har bir saylov – jamoaning uzoq muddatli kelajagiga qo‘yilayotgan poydevor sifatida qaraladi. Har bir rais esa bu ishonchni oqlashi uchun yanada ko‘proq mas’uliyat, bilim va tashabbus bilan ishlashi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-fevraldaggi O‘RQ-1027-sonli Qonuni